

**KOGNITIV PSIXOLOGIYADA DIQQAT JARAYONINING
TANLOVCHANLIK NAZARIYASI**

Zohidov Samandar Iskandar o'g'li

Samarqand Davlat Universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada diqqat ko'chuvchanligining asosiy omili sifatida diqqatning tanlovchanlik nazariyasi va unda bir necha olimlar tomonidan yaratilgan diqqat modellari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: diqqat ko'chuvchanligi, selektiv diqqat, filtr, Brodbent modeli, dixotik tinglash, Treysman.

**ТЕОРИЯ ВЫБОРА ПРОЦЕССА ЗАКЛЮЧЕНИЯ В КОГНИТИВНОЙ
ПСИХОЛОГИИ**

Захидов Самандар Искандар угли

Магистр Самаркандского государственного университета

Аннотация: В статье обсуждается теория избирательности внимания как ключевого фактора подвижности внимания и паттерны внимания, разработанные некоторыми учеными.

Ключевые слова: подвижность внимания, избирательное внимание, фильтр, модель Бродбента, дихотомическое слушание, Трейсмэн.

**THE CHOICE THEORY OF THE PROCESS OF ATTENTION IN
COGNITIVE PSYCHOLOGY**

Zahidov Samandar Iskandarn ugli

Master of Samarkand State University

Annotation: The article discusses the theory of attention selectivity as a key factor in attentional mobility and the attention patterns developed by several scientists.

Keywords: attentional mobility, selective attention, filter, Broadbent model, dichotomous listening, Traysman.

Bizga doimo cheksiz ichki va tashqi stimullar, fikrlar va hissiyotlar ta'sir etib turadi. Mavjud ma'lumotlarning juda ko'p ekanligini inobatga olgan holda, bizning har qanday ma'lumotlar va ta'sirlarga nisbatan javob reaksiyamizning tayyor turishi hayratlanarli holatdir. Biz o'z ishimizning samaradorlik darajasini belgilovchi omil sifatida nimalarga diqqat - e'tiborimizni jalb qilish va qolgan ikkinchi darajali narsalarga e'tibor bermaslikdek muhim qobiliyatimizni rivojlantirdik¹


XX asr o'rtalaridan boshlab kognitiv psixologiyada diqqat jarayonining xususiyatlari, vazifalari, nerv- fiziologik asoslari singari ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan jarayonlarni eksperimental tajriba yordamida tadqiq etilishi barobarida, diqqtaning ko'chuvchanligi, tanlovchanligi, taqsimlanishi va yo'nalganligi to'grisidagi nazariyalar vujudga keldi. Jumladan, diqqatning tanlovchanlik xususiyati to'grisida bir qancha olimlar o'z ilmiy tadqiqotlari yordamida diqqat jarayonining dastlabki modelini ishlab chiqdilar.

Selektiv diqqat yoki diqqatning tanlovchanlik xususiyati – bu bizning atrof – muhit ta'sirotlari yoki ma'lumotlar oqimidagi eng muhim va o'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarga qisqatimizni jalb qilish, aksincha, bizga tegishli bo'limgan ta'sirotlar yoki biz uchun ahamiyatsiz bo'lgan narsalarga diqqatimizni yo'naltirmaslik xususiyatidir. Diqqat jarayonining ushbu ahamiyatsiz ta'sirotlar yoki ma'lumotlarni cheklash xususiyati, konus shaklidagi jismning toraygan qismidagi o'tkazuvchanlik yoki oddiy shishaning og'iz qismidagi toraygan qismining o'tkazuvchanlikni qisqartiruvchi omili sifatida talqin etilgan. Bu o'rinda olimlar Brodbent va Tresmanning ilmiy izlanishlari asosida vujudga kelgan "Diqqat modeli" yuqorida ta'kidlangani kabi ma'lumotlarni qabul qilish jarayonida asosiy va eng muhim belgilarga ega bo'lganlarigagina diqqatimiz jalb etiladi. Chunki, ularning fikricha biz ongli ravishda sezgi a'zolarimizga ta'sir etib turgan barcha narsalarga diqqatimizni ayni bir vaqtda qarata olmaymiz. Bu esa diqqat jarayonining tanlovchanlik ya'ni eng muhim narsalarga nisbatan yo'nalish olishiga sabab bo'ladi.

¹ McLeod, S. A. (2018, October 24). Selective attention. Simply Psychology.

Brodbent (1958) ning ta'kidlashicha, axborot yoki ta'sirlarning faqatgina ayrimlari keyingi psixik jarayonlarda (idrok, xotira, tafakkur) qatnashishga yo'naltiriladi, qolganlari esa anglanish yoki idrok qilinish jarayoniga yetib bormasdan yo'qoladi. Har qanday vaqtida berilgan barcha stimullardan keluvchi axborot oqimlari sensor tizimga kiritiladi. Qabul qilingan ta'sirlardan biri keyinchalik fizik xususiyatlari(misol uchun atrofimizda bizga eshitilayotgan ovozlarning baland yoki pastligi, ovoz tonlaridagi farq va boshqalar)ga ko'ra filtrlanadi va qo'shimcha ishlov berish bosqichi uchun tayyor holga keladi. Bu jarayonning ijobiy tomoni shundaki, diqqat jarayonida bunday filtrdan o'tgan axborotlar ma'lum darajada qisqaradi hamda boshqa psixik jarayonlar; idrok, xotira, tafakkur va boshqa jarayonlar ishini yengillashtirib, haddan tashqari kop ma'lumotlarning analiz – sintez qilinishini oldini oladi. Dastlab, qabul qilingan ma'lumotlarning diqqat bilan integratsiyalashmagan qismi filtrdan o'tmaydi va agar undan qayta foydalanish zarurati tug'ilmasa o'z aktivligini yo'qotadi. Biror bir ma'lumotning ma'nosini aniqlash filtr tomonidan amalga oshirilmaydi, balki filtr ayrim ma'lumotlarni saralab olgandan so'ngina semantik jarayonlar sodir bo'ladi. Shunday qilib, ma'lumotlar saralanib olinishidan oldingi jarayon ya'ni ularga nisbatan diqqatning yo'nalmasligi, ma'lumotlarning ma'nosiga tushunmaslik yoki anglanmaslik holatiga olib keladi.

Brodbent modeli:



Brodbent odamlar qanday qilib o'zlarining diqqatini yo'naltirishiga doir turli tadqiqotlar olib borgan, ulardan biri bu odamlarga qo'shimcha vazifalar yuklanganda ularning diqqat jarayonidagi o'zgarishlarning natijasi bo'lган. Uning tajribasida bir vaqtning o'zida odamning bir qulog'iga bir xil ma'lumot, boshqa qulog'iga esa boshqa ma'lumot bilan ta'sir etilgan. Va bunday jarayon diqqatning taqsimlanish tajribasi (shuningdek dixotik tinglash mashqi ham) deb nomlangan.

Dixotik tinglash mashqi. Tajribada qatnashayotgan ishtirokchining chap va o'ng qulog'iga ayni bir vaqtda 3 yoki undan ko'p bo'lган raqam yoki so'zlar qulochinli eshitish apparati yordamida eshittiriladi, ammo o'ng qulooqqa beriladigan ma'lumot, chap qulooqqa beriladigan ma'lumotdan butunlay farq qiladi ya'ni, bir-biriga o'xshamagan 2 ta axbrot ayni bir vaqtda eshittiriladi. Ishtirokchidan bir vaqtning o'zida berilayotgan ikkala xabarni ham tinglashlari va shundan so'ng nimani eshitganini aytishi kerak bo'lган. Olim bu tajribada ma'lumotlarning sinaluvchi tomonidan qay tarzda javob berilgani, ya'ni sinaluvchi eshitgan ma'lumotlarini tartib bilan qaytarganmi, yoki avval bir qulog'i bilan eshitgan ma'lumotlarni va keyin boshqasini qaytarganmi kabi savollarga javob topgan. Uning aniqlashicha sinaluchi dastlab bir qulog'ida eshitgan ma'lumotlarga javob berganda kamroq xatoliklar kuzatilgan. Biroq, Brodbentning eksperimenti keyinchalik ayrim tanqidlarga uchragan.

- Dastlabki tajribalar vaqtida sinaluvchilar qaysi ma'lumotlarga diqqat qilish kerakli haqida tushunchaga ega bo'lishmagan. Ular diqqat jarayonining funksiyaviy holatini tushuntirib berishdan ko'ra, eshitgan narsalaridagi chalkashliklarga ko'proq duch kelishgan.
- Bu tajribada sinaluvchi eshitgan va diqqat qilgan narsasini ko'rsatilgan vaqtda qaytarib aytib bergen ammo, diqqat qaratilmagan ma'lumotlar analiz qilingan biroq tezda unutilgan.
- Diqqat jalb qilinmagan xabarlar tafakkur darajasidan quyi darajadagi jarayonlarda qayd etilgan .

Shu va shunga o'xshash chalkashliklar Brodbent nazariyasi yaratilgandan so'ng yuzaga keldi va uning modeli not'g'ri talqin etilgan bo'lishi

mumkinligiga ishora qildi. Tanlovchan filter modeli. N. Morey (1935- 2017) shuni aniqladiki, sinaluvchilar diqqat jalg etilmagan xabarlarning boshqa, yuqori darajadagi (semantic) tomonlarini e'tiborsiz qoldirsalar ham, o'zlarining ismlari aytilganda diqqat jalg qilinmagan holda ham ularni eslab qolishi kuzatilgan (Morey,1959; Vud va Kovan, 1995). Uning ta'kidlashicha bu ta'sirning sababi odam uchun kata ahamiyatga ega bo'lgan xabarlarga nisbatan tanlovchan diqqat filtrini istisno qilishi mumkin, biroq ahamiyat darajasi nisbatan pastroq bo'lgan ma'lumotlarga nisbatan esa diqqat filtri amalda bo'ladi. Olimning so'zlariga ko'ra tanlovchan filtr ko'p ma'lumotlarni dastlabki sensor bosqichda to'sib qo'yadi. Shuningdek shaxsiy xarakterga ega bo'lgan ma'lumotlar kuchli ta'sirga ega bo'lgani sababli diqqat qaratilmasa ham filtr qismidan o'tib keta oladi.²

Ba'zi hollarda diqqat jalg etilmagan ayrim xabarlarning filtr bosqichidan o'tib ketishi bo'yicha Anna Treysman o'z ilmiy tajribalarida izlanish olib borgan va "Zaiflashish modeli"ga asos solgan. Bu model bo'yicha, tadqiqot ishtirokchilarini bir biriga bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni eshitib takrorlashgan, va ayrim vaqtarda bu jarayon diqqat jalg etilmayotgan quloqning funksiyasi bilan almashinib turgan. Ishtirokchilar diqqat jalg etilmayotgan quloqlari orqali aytib berilishi kerak bo'lgan dastlabki ma'lumotlardan bir nechtasini takrorlashgan va buning natijasida diqqat jalg etilmagan ma'lumotlarning ham ayrimlari psixik jarayonlarga o'tgan bo'lishi kerak deb izohladi. Bundan tashqari tajriba davomida diqqat jalg etilmagan ma'lumotlar va diqqat jalg etilgan ma'lumotlar o'zaro mos kelsa yoki juda kam farqlar bilan o'zaro o'xshash bo'lsa, tajriba ishtirokchilarini bu haqda xabardor qilingan. Treysman shuningdek, ikki tilli ishtirokchilar bilan ham tajriba o'tkazib, bir tildagi diqqat jalg qilingan ma'lumotlar, diqqat jalg etilmagan xuddi shu ma'lumotning tarjimasi o'rtasidagi moslikni tadqiqot ishtirokchilarini qayd etganini aniqlagan. Treysmanning tadqiqoti va g'oyalari kelgusi eksperimentlarning ketma-ketligini va uning izdoshlarini ta'minlashga xizmat qildi.

Ayrim tadqiqotlarda ma'lumot o'z ismiga aloqador bo'lganda jumla tarkibidagi taxmin qilish oson bo'lgan signal so'zlardan ko'ra ko'proq ogohlantiruvchi

² R.J.Sternberg. C. Sternberg. 6th edition. Cognitive Psychology. Oklahoma State University Page 151

vositalardan o'tishi mumkindek tuyuldi. Masalan Korten va Vud (1972) ikki qismli tajriba o'tkazgan.³ Dastlab, ular o'z ishtirokchilariga bir qator so'zlarni taqdim etishdi va har safar ma'lum toifadagi(shahar nomi) so'z paydo bo'lganda, ishtirokchiga yengil elektr toki ta'sir ettirilgan. Shu tarzda zarba va shahar nomi o'rtasidagi muvofiqlik yuzaga keltirilgan. Garchi tok kuchi o'g'riqli darajada ta'sir etmagan bo'lsada ammo o'sha so'zlardan biri kelganda ishtirokchilarda yengil darajada qo'rquv yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Bunday javob reaksiyasi(bir marta sinovdan o'tgan , sinovni davom ettirish uchun yana elektr toki zarbasini talab qilmaydigan) tananing teri qismidagi elektr qarshiligining bir lahzali o'zgarishi sifatida o'rganilishi mumkin. Tadqiqot davomida asabiylashgan ishtirokchida ter bezlari faollashadi hamda ter bezi suyuqligini normadan ko'proq ishlab chiqaradi, bu suyuqlik esa o'z navbatida kichik(zarba bermydigan) elektr tokining qarshiligini pasaytiradi. Ya'ni yolg'on ma'lumotlarga nisbatan tanadagi harorat o'zgarishi yoki suyuqlik ta'sirida yengil tok urishi kuzatilishi mumkin. Bunday javob qaytarish fanda Galvanink Teri Reaksiyasi (GTR) yoki "Yolg'on Detektori" deb nomlanadi. Kortin va Vud ishtirokchilar bilan tadqiqotning ikkinchi qismini boshlaganda, GTR apparati bilan bog'liq ravishda dixotik tinglash vazifasini amalga oshirishdi. Odatdagidek, tadqiqot ishtirokchilari diqqat jalb qilinmagan qulqoq yordamida eshitilgan ma'lumotlarni takrorlash uchun eslay olishmagan, ammo yolg'on detektori diqqat jalb etilmagan qulqoqqa berilgan ma'lumotlarni qaytadan ayrim so'zlarini ishlatib savol berilganda ishtirokchilarda yengil tok urishi ya'ni ishtirokchi uchun negativ, tadqiqot uchun esa positiv javob reaksiyasi kuzatilgan. Bundan tashqari GTR xuddi shu toifadagi so'zlarga nisbatan ham aniqlangan, ammo u shok-assotsiatsiya bosqichida taqdim etilmagan. Taqdim etilmagan so'zlarga javobning bunday umumlashtirilishi, hatto ongli ravishda sezilmaganda ham ularning ma'nolari aniqlangan degan taxminni ilgari surishga asos bo'ladi. Diqqatni tadqiq etishning ushbu bosqichida bir qator psixologlar tomonidan ilgari surilgan nazariya, ya'ni miyya nerv – fiziologik nuqtai nazaardan aynan bir vaqtning o'zida bir qancha ma'lumotni qayta ishlashi mumkin emas degan qarashlarni shubha ostiga qo'ydi. Bu o'rinda nafaqat boshqa psixik

³ Cognitive Psychology. Nick Braisby and Angus Gellatly. OXFORD University press 2005. Page 44.

jarayonlar balki diqqat jarayonida ham aynan bir vaqtning o'zida turli xil obyektga yoki narsalarga e'tiborning jalb etilish muammosi mavjud bo'lib, ushbu masala bugungi kungacha turli nuqtai – nazarlardan muhokama qilinib kelinmoqda. Qiziqarli tomoni shundaki keyingi diqqat eksperimenti bo'yicha qilingan tadqiqotlar masalan Dutch va Dutch ishlarida tadqiqot ishtirokchilar tomonidan qabul qilinayotgan ma'lumotlarning barchasi ya'ni diqqat jalb etilganlarida ham va diqqat qaratilmaganlarida ham fitrlanish sodir bo'lish bo'lmaslidan qat'iy nazar, keying psixik jarayonlarga qatnashish uchun yo'naltiriladi. Norman esa diqqat jalb etilmagan ma'lumotlar hech bo'limganda semantik faoliyatda qatnashishi va semantik xotirani faollashtirish uchun yetarli darajada qayta ishlanishi bo'yicha tadqiqotlarini olib borgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, garchi dastlabki diqqatning funksiyalari to'grisidagi tadqiqotlarda ayrim kamchiliklar qayd etilgan bo'lsada, Brodbent diqqatning asosiy vazifalarini aniqlashda bir muncha istiqbolli natijalarga erishgan. Olimning selektiv diqqat yoki diqqatning tanlovchanlik nazariyasiga nisbatan qo'llagan modeli o'sh davrning mavjud ilmiy tadqiqotlari asosida paydo bo'lgan va shakllangan. Diqqatning tanlovchanlik nazariysi nafaqat uning ko'chishi , taqsimlanishi va bo'linishi balki,xotira , tasavvur, tafakkur idrok singari keying bosqichdagi muhim jarayonlarda ham tayanch omil sifatida talqin etiladi. Diqqatning ko'chish jarayonida dixotik tinglash vazifasi asosida yondashuv uning tanlovchanlik xususiyatii bilan uziy bo'qliq jarayon hisoblanadi. Brodbent va A. Treysmanning diqqat modelidagi asosiy farq shundaki, diqqat jalb etilganlik va jalb etilmaganlik hodisalari o'rtasidagi ayrim tajribalar davomida orttirilgan farqlarning qarama qarshiligida yuzaga keluvchi natijalar mahsuli bo'lgan, biroq diqqatning tadqiq etilishida bu ikki model diqqatning tanlovchanlik nazariyasini izohlashda o'z o'rniga ega bo'lgan. Keyinchalik olib borilgan izlmiy izlanishlar asosida selektiv diqqat yoki diqqatning tanlovchanlik nazariyasini izohlashning yangi davrga oid ma'lumotlari asosida ko'plab yangi kashfiyotlar bo'lishiga qaramasdan brodbent modeli hozirgi ma'lumotlarning asosiy fundamenti sifatida talqin etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. E. G'oziyev "Umumiy psixologiya". T. "O'qituvchi" 2010 y
2. Cognitive Psychology. Nick Braisby and Angus Gellatly. OXFORD University press 2005. Page 44.
3. R.J.Sternberg. C. Sternberg. 6th edition. Cognitive Psychology. Oklahoma State University Page 151
4. McLeod, S. A. (2018, October 24). Selective attention. Simply Psychology.